

LIRIKADA HAQIQAT VA NAFOSAT

Satimova Ra’no Habibullayevna

*Andijon tibbiyot instituti akademik litseyi
Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Annotatsiya : Bobur lirikasini g`azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, masnaviy, fard,muammo kabi janrlarda bitilgan g`oyaviy-badiiy jihatdan puxta – pishiq bo`lgan asarlar tashkil etadi.

Shoirning lirik she’rlarida hayotbaxsh tuyg`ular-hayotdan zavqlanish ,yor vasli bilan quvonishi, el-yurt,diyor sevgisi, ona-Vatandan uzoqda yurgan lirik qahramonning iztirobli tuygulari, pand-nasihat mavzuyidagi ilm-ma’rifat va odob-axloqqa chaqiruvchi, taqdirdan nolish kabi motivlar yuksak badiiy mahorat bilan kuylanadi.

Bobur poeziyasining muhim tomonlaridan biri shoir she’rlari tarixiy voqe va hodisalar bilan chambarchas bog`lanishi va o`sha davrning voqeligini sodda va ravon tilda taraqqiyparvarona fikrlar bilan ifodalanishi, jo`shqinligi, til boyligi va hayotiyligidir.Bu xususida O`zbekiston FA ning haqiqiy a’zosi, professor V.Zohidov quyidagilarni yozgan edi: «O’zining badiiy asarlari bilan u ba’zan feodallar vakili, mafkurachisi sifatida , ba’zan o’z davrining ilg`or kishisi sifatida ko`rinadi. U ba’zan feodalizm jamiyatini, davlatini, feodal usulini,feodal mafkurasini yoqlasa, ba’zi hollarda ularni fosh qiladi, o`sha davrning tor ramkasiga sig`maydigan fikrlarni ko`plab ifodalaydi.

Kalit so`zlar: g`azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, masnaviy, fard,muammo taraqqiyparvarona fikrlar, poeziya, feodallar, badiiy mahorat

Lirikada haqiqat va nafosat

Xalq, haqiqat va nafosat o`lmaydi, deydilar va bularni ardoqlagan, kuylagan ulug’lar ham mangudir. Ular hamisha avlodlar dili va tilida barhayot. Shu minnatdir avlodlarning ezgu intilish va ishlarida madadkordir, deydilar.

Bu – ayni haqiqat. Firdavsiy, Nizomiy, Sheraziyy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bedil qatori Zahiriddin Muhammad Bobur ham hamon xalq dilida oradan besh yuz yildan ko’p vaqt o’tgan bo’lsa-da u o’z asarlarida barhayotdir, oramizdadir, biz bilan birgadir.

U , shu ulug’lar kabi, hayratomuz go`zal va mo’jizakor va nafis, quyosh yanglig’ so’nmas va oltin ,ega o’xshab qoraymas, rang – barang va sehrli badiiyat obidalar yaratdi. Bu badiiyat obidalari barkamol bahor kabi iffatli, rangin va zarrindir, shu bahor latofati va fusuni singari zavqli, ilhombaxsh va shavqlidir, yana shu bahor kabi suronli hujumkor va o’zgaruvchandir.

Zahiriddin Muhammad Bobur yirik davlat arbobi va mohir lashkarboshi bo’lishi bilan birga shoir, adib, tarixchi va olim hamdir. Uning qisqa hayoti urush – yurishlarda, omonsiz jangu jadallarda kechdi. U goh xursandchilikda, goh cheksiz g’am – alamlar girdobida yashadi, alal-oqibat tunganmas ruhiy istiroblar iskanjasida umr o’tkazdi. Bu haqda “Boburnoma” da o’qiymiz: “o’n bir yoshimdan beri ikki Ramazon iydini payo- pay bir yerda qilg’on ermas edim” . U boshidan kechirgan iztirobli kunlarni eslab, keyinroq masnaviyalarida ham shunday yozgan edi:

Ko’rsatib davlat yitmagin na edi,
Erga urding, kutarmagin na edi.
Goh johilni sarbaland aylar,
Goh oqilni poyband aylar.
Ne vafo qilg’anini bilsa bulur,
Ne jafosig’a sabr qilsa bo’lur.
Ne qilay, ne kishidan istay dod?
Kimga dahr ilgidan qilay faryod.
Arzimas g’am yemakka bu dunyo,
Bal otin ham demakka bu dunyo.

Haqiqatdan ham Bobur yashab ijod etgan zamon Movarounnahr va Xuroson tarixida g’oyati ziddiyatli bir davr edi. Bir tomondan, ulug’ Amir Temur asos solgan, nisbatan markazlashgan davlat, uning ijtimoiy – siyosiy va madaniy hayotga ko’rsatgan qator ijobiy oqibatlari bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, ana shu qudratli imperianing inqirozga yuz tutishi tufayli, turli tomondan feodallarning o’zaro toj-taxt uchun kurashlari el- yurtning iqtisodiy- siyosiy va madaniy hayotiga shubhasiz, salbiy ta’sir ko’rsatayotgan edi. Bular oxir- oqibatda buyuk sultanatni yemirilishiga olib keldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nihoyatda sertashvish, notinch hayot kechirishiga qaramay, o’z davriga nisbatan yetuk bilim olib, beba ho badiiy va chuqr mazmunli ilmiy asarlar ijodkori darajasiga ko’tarildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o’n olti – o’n yetti yoshlaridan ijod qila boshlagan. U “Boburnoma”da 1499-1500 yillar voqeasi haqida so’zlar ekan “ul fursatlarda biror – ikkiror bayt aytur erdim, vale g’azal tugatmaydur erdim”, - deydi.

Bobur o`zbek mumtoz adabiyotining, ayniqsa, Alisher Navoiyning boy adabiy merosini hamda fors-tojik tilidagi adabiyotning ustoz san’atkorlarining adabiy tajribalarini o’rgandi, o`zbek va fors-tojik tillarida yangi, o`ziga xos she’rlar yaratdi, o`zbek va fors-tojik tilidagi she’rlarini to’plab ikki devon tuzadi. Bu devonlaridagi ayrim she’rlar «Boburnoma»ga ham kiritilgan. U 20 yoshida yangi bir yozuv- «Xatti Boburiy»ni nashr qiladi. Musiqa bilan shug’ullanib, «Chorgox» maqomiga «savt»lar bitadi. «Boburnoma» -dek ulkan tarixiy-badiiy asarni yaratadi. Soliq ishlarini tartibga soluvchi «Mubayyin al-zakot» («Zakot bayoni asarini she’riy yo’lda yozadi. Aruz

nazariyasi haqida risola tuzadi. «Muxtasar» nomi bilan shuhrat topgan bu asar Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon»idan keyin aruz ilmiga bagishlangan ikkinchi yirik asar edi.Uning «Harb ishi», «Musiqa ilmi» nomli asarlari hozirgacha topilgan emas.Bobur tarjima bilan ham shugullanib,Xo`ja Axrorning «Voldiy» asarini she’riy yo’l bilan o`zbekchaga tarjima qiladi. Bu uning arab tilini ham puxta bilganligidan dalolat beradi.

Uning lirik merosi hajmi jihatidan uncha ko`p bo`lmasa-da,mavzu doirasi ,shakliy takomili va badiiy tomonidan g`oyat go`zal va mukammalligi bilan ham alohida e`tiborga loyiq.

Bobur lirkasini gazal, ruboiy, qit'a, tuyuq, masnaviy, fard,muammo kabi janrlarda bitilgan g`oyaviy-badiiy jihatdan puxta – pishik bo`lgan asarlar tashkil etadi.

Shoirning lirik she’rlarida hayotbaxsh tuygular-hayotdan zavqlanish ,yor vasli bilan quvonishi, el-yurt,diyor sevgisi, ona-Vatandan uzoqda yurgan lirik kahramonning istirobli tuyg`ulari, pand-nasihat mavzuyidagi ilm-ma’rifat va odob-axloqqa chaqiruvchi, taqdirdan nolish kabi motivlar yuksak badiiy mahorat bilan kuylanadi. Bobur poeziyasining muhim tomonlaridan biri shoir she’rlari tarixiy voqeа va hodisalar bilan chambarchas boglanishi va o`sha davrning voqeligini sodda va ravon tilda taraqqiyparvarona fikrlar bilan ifodalanishi, jo`shqinligi, til boyligi va hayotiyligidir.Bu xususida O`zbekiston FA ning haqiqiy a’zosi, professor V.Zohidov kuyidagilarni yozgan edi: «O`zining badiiy asarlari bilan u ba’zan feodallar vakili, mafkurachisi sifatida , ba’zan o`z davrining ilg`or kishisi sifatida ko`rinadi. U ba’zan feodalizm jamiyatini, davlatini, feodal usulini,feodal mafkurasini yoqlasa, ba’zi hollarda ularni fosh qiladi, o`sha davrning tor ramkasiga sig`maydigan fikrlarni ko`plab ifodalaydi.

Bobur hammadan avval o`z ijodiyotining progressiv fikrlari bilan qadrlidir»`.

Bobur g`azallaridagi mavzu jihatidan rang-barangliqni ko`zdan kechirar ekanmiz, ularda optimistik tuygu bilan sug`orilgan , insonning shodu xurramligi bilan boglik ko`tarinki ruhda bitilgan qator g`azallarga ham duch kelamiz.

Haqiqatdan ham hayot ne’matlari: yoz fasli, yor vasli, do’stlar suhbatidan zavqlanish, hayotga umid ko`zi bilan qarab, optimistik xulosalar chiqarish Bobur she’riyatining muhim tomonlaridan biridir.Quyidagi:

Yoz fasli, yor vasli, do’stlarning suhbatи,
She’r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyatи``
yoki:

Bo`lmadim umrimda bir dam xotiri xurram ila,
Gar ilkidan kelsa bir bamni kechirmang gam bila``,-
kabi misralarda hayotni imkon qadar shod-u xurramlik bilan
o’tkazishga,hayotdan zavq olishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Ma’naviy yuksalish yo’ida (to`plam) – T: O`zbekiston, 1998
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`k – T: Shark, 1998
3. Aliev.S. Boburning she’riy ijodiyoti (dissertatsiya) T, 1948.
4. Bobur. Z.M. Boburnoma – T: yulduzcha, 1990
5. Bobur. Z.M. Devon – T: Shark, 1996
6. Zohidov.V. O`zbek adabiyoti tarixidan – T, 1961
7. Otajonov. N . «Boburnoma» jahon kezadi T: 1970
8. Orzibekov. R Lirikada kichik janrlar – T: 1976
9. Hasanov. X. Bobur – sayyoh va tabiatshunos- T: O`bekiston 1983
10. Xomidov. X .Xasaniy M. Mashriqzamin hikmat bo`stoni – T: Sharq, 1997
11. Erkin. U Bobur Hindistonda –T: Cho`lpon, 1995.